

## **BOLALAR O'YINLARIDA MAROSIM FOLKLORI**

*Mirzayeva Komila Sheraliyevna*

*Termiz ixtisoslashtirilgan*

*san'at maktabi o'qituvchisi.*

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy*

*madaniy meros ilmiy tadqiqot*

*instituti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada bolalar marosim folklorining tarbiyaviy ahamiyati, bolalarning eng yaxshi insoniy fazilatlari, vatanparvarlik, mehnatga muxabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ulari ifodalangan. Qolaversa ajdodlardan meros osori-atiqalarni ulug'lashi va an'ana va qadryatlarga hurmat hislari shakllanishi haqida asosli ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq musiqa ijodiyoti, o'zbek bolalar folklori, tarbiya, an'analar, musiqiy meros, qadryat, o'yinlar.

**Annotation:** This article describes the educational value of children's ritual folklore, the best human qualities of children, patriotism, love of work, trust in people, loyalty to friends. In addition, it provides basic information about the glorification of artifacts and antiques inherited from ancestors and the formation of a sense of respect for traditions and values.

**Keywords:** folk music, Uzbek children's folklore, education, traditions, musical heritage, value, games.

### **Kirish**

Ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardayoq ishongan. Bola endigina dumyoga kelgan kunidan boshlab, onaning ardog'ini, yoqimli allasini eshitadi. Bolalar uchu yaratilgan bu maxsus poeziya kishi ongiga ona suti bilan kiradi. Keyinchalik u tobora kengayadi, rang-barang ohanmglar, xilma-xil obrazli so'zlar bilan to'la boshlaydi. Asta-sekin kattalarning bolalarga ataganlari ertaklar, allalar, ermaklar,maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar shaklida to'planib kichkintoylar uchun kattagina og'zaki badiiy adabiyot yuzaga keladiki, shu adabiyotning barakali ta'sirida bolaning ma'naviy dunyosi shakllanadi. Bunday adabiyot bolalarning yosh xususiyatini inobatga olgan, bola ruhiyatining barcha qirralarini o'zida aks ettirgan bo'adi.bolalar ermaklari, qo'shiqlari, o'yinlari ularning kelgusidagi amaliy xatti-harakatlari uchun poydevor hozirlaydi. Bolalar folklori bola nuchun ilk tarbiya darsligi, ma'naviy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir.

### **Muxokama**

Bolaga atab yaratilgan ogʻzaki poeziya xalqning ming yillar mobaynida yosh avlodni tarbiyalashda xizmat qilib kelgan buyuk pedagogic merosidir. Bola tugʻilishidan mehnat faoliyati boshlanguniga qadar oʻtgan davr uning yoshi, jismoniy quvvati, qiziqishiga qarab turli xil mashgʻulotlar bilan toʻlgan. Bular bolalar oʻyinlaridir. “Oʻyinlar oddiy jismoniy harakatlardangina iborat boʻlmay, maʼlum ritm, ohang badiiy soʻz, syujet va kompozitsiyalarga ega boʻlgan bolalarning jiddiy mashgʻulotidir” (S.Ya.Marshak).

Bolalar yoshlikdan oʻyinlarga koʻnikma hosil qiladilar va bundan oʻzlariga estetik zavq oladilar, uning yordamida aqliy va jismoniy kamolotga erishadilar. Bu masalada xalq ogʻzaki ijodi va marosim folklori salmoqli hissa qoʻshadi. Bolalar oʻyinlarining ruhi, tabiati, xarakteri, poetikasi, ishtirokchilarning xatti-harakatlari shu xalqning mehnat va milliy traditsiyalari bilan, turmush kechirish sharoitlari, geografik yashash oʻrni, iqtisodiy va siyosiy talablaridan shakllanadi. Oʻzbeklar ular bilan birga yashagan xalqlar va qabilalarning milliy oʻyinlari haqidagi dastlabki maʼlumotlar bizgacha XI asrning buyuk lingvisti, tarixchisi, etnografi Maxmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” kitobi orqali yetib keladi. Oʻrta osiyo hududida yashagan qabila xalqlarning milliy tillariga, ayrim soʻzlariga izoh berish orqali kishilarning mashgʻulotlarini va xatto bolalarning oʻyinlarigacha tilga oladi. Devondan atigi bir misol keltiramiz.

Monoʻz-monoʻz-bir xil bolalar oʻyini. Bu shunday “Bolalar tiz choʻkib, dengiz labida oʻtiradilar sonlari orasiga xoʻl qum solib toʻldiradilar. Soʻng qoʻllari bilan qumni uradilar. Ulardan biri (ona boshi) monoʻz- monoʻz, deydi. Qolganlari –na monoʻz- nimaning mongoʻzi (shoxi) deb soʻraydilar. U birin-ketin shoxli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham takrorlaydilar. Soʻng ona boshi shu nomlar orasida tuya, eshak kabi shoxi yoq hayvonlarni aytib chal gʻitadi. Bolalardan birortasi uning ketidan shoxsiz hayvon nomini aytib yuborsa, u suvga itarib yuboriladi”.

### **Adabiyotlar tahlili**

Oʻyinlar xalq bilim va tajribasining bitmas tunganmas xazinasidir. Bu xazinaning saqlovchilari bolalarning oʻzlari. Oʻzbek bolalar folklorini oʻrganish 1960 yillardan boshlab oʻzgacha tus ola boshladi. Z.Husainovning “Oʻzbek topishmoqlari” (1966), G.Jahongirovning “Oʻzbek bolalar folklori” (1975), shuningdek, O.Safarovning “Bolalarni erkalovchi ozbek xalq qoshiqlari” (1983), “Oʻzbek bolalar poetik folklori” (1985), “Alla-yo alla” (1999), “Chittigul” (2004), Sh.Galievning “Oʻzbek bolalar oʻyin folklori” (1998) singari tadqiqotlari bilan bolalar folklori yanada boyidi. Bolalar folklori tadqiqotchisi, “Oʻzbek xalq ijodi” nomli koʻp jildli turkumidan oʻrin olgan “Boychechak” kitobining tuzuvchilaridan biri Oxunjon Safarov oʻzbek bolalar folklorini tadqiq etish boʻyicha ishlar yetarli darajada emasligini taʼkidlaydi. Shunday boʻlsa-da, bolalar folkloristikasi boʻyicha muayyan tajriba toʻplangan va Y.Peshcherova, Elbek, X.Zarifov, M.Alaviya, Z.Husainova, T.Mirzayev, M.Murodov,

B.Sarimsoqov, G.Jahongirov, X.Razzoqov, S.Ro‘zimboyev va boshqa mualliflar, filolog olimlarning ishlarini alohida ko‘rsatish mumkin. Mazkur mualliflarning bolalar qo‘shiqlari to‘plamlari adabiyatli variantda, nota yozuvlarisiz berilgan. Inson ma‘naviyatini yuksaltirishda folklorning o‘rni haqida so‘z borganda, aslida, bu jarayon go‘daklikdan boshlanishini ta‘kidlash lozim. Onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytim-olqishlar hamda ertaklar bolalar nutqini o‘stirishda, dunyoqarashini kengaytirishda hamda estetik didini shakllantirishda ahamiyati kattadir.

### **Natija**

Xalq ijodiyoti xalqimizning bebaho ma‘naviy-ahloqiy va tarbiyaviy mulki, boyligidir. Xalq musiqa ijodi orqali o‘quvchilar milliy qadriyat va an‘analarimizni yanada chuqurroq anglaydilar. Musiqa pedagogikasining eng muhim vazifalaridan biri ushbu bebaho musiqaning bolalar tomonidan o‘zlashtirilish samaradorligi hamda zarurligi hisoblanadi. Hozirgi kunda yosh avlodni milliy an‘analarga sadoqat ruhida tarbiyalashda musiqiy folklor asarlarining o‘rni va ta‘siri beqiyosligini e‘tiborga olgan holda, ularni o‘rgatishga alohida ahamiyat berilmoqda. Endilikda folklor qo‘shiq, o‘yin-aytimlar bolalar estetik ta‘lim-tarbiyasining muhim qismi sifatida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida hamda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘rganilmoqda. Chunki, folklor qo‘shiqlarini yosh avlod qalbida jo bo‘lishi orqali bolalarda ona Vatanga sadoqat, tabiat va ona yurt an‘analariga hurmat hissi shakllanadi. Zero, yosh avlodda eng yaxshi insoniy tuyg‘ularni, yuksak odamiylik fazilatlarini shakllantirib, kamol toptirishda, ularning ma‘naviy dunyosini boyitishda folklor qo‘shiqlarining ahamiyati beqiyosdir. Hozirda o‘zbek xalq musiqa ijodiyoti pedagogika, madaniyat va san‘at ta‘limi muassasalari o‘quv jarayonlariga qator fanlar (“O‘zbek xalq musiqa ijodi”, “An‘anaviy musiqa asoslari” va b.) tarzida tatbiq qilingan. Shuningdek, xalq musiqa ijodiyoti an‘analariga bag‘ishlangan ishlar qiziqish uyg‘otadi. Bu ishlar taniqli san‘atshunos olimlar R.Abdullayev, F.Karamatov, Y.Rajabiy, M.Raxmonov, M.Qodirov, T.G‘ofurbekov va boshqalarining ilmiy ishlarida ham tatbiq etilib, yoritib berilgan. Xususan, taniqli olim (“El-yurt xurmati” ordeni nishondori) F.M.Karomatli “O‘zbek xalqi musiqa merosi” turkumining yangi jildlarini nashrga tayyorladi, qator maqolalar e‘lon qildi. R.S.Abdullayev “Markaziy Osiyo xalqlari marosim musiqasi”ga bag‘ishlangan ilmiy monografiyani nashrdan chiqardi. Shuningdek, R.Yu.Yunusov va O.A.Ibroximovlarning “O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti” o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari chop etildi. Bolalar folklori va adabiyoti bolalar ongiga ona vatanga muxabbat, do‘stga sadoqat, o‘z burchiga vafodorlik, milliy qadryatlarga hurmat va ehtirom kabi yuksak tuyg‘ularni singdirishda shakllantirishda muhim vazifalarni bajarmoqda.

### **Xulosa**

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, yurtimizda bolalar musiqiy folkloriga va shu asosda yosh avlodga ta‘lim-tarbiya berishga jiddiy e‘tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki bolalar folklor qo‘siqlari milliy musiqiy merosning tarkibiy ajralmas qismi

bo'lib, yosh avlodda milliy qadriyatlar idrokini shakllantirishda muhim omildir. Xalqimiz ming yillar davomida yaratgan og'zaki ijod boyliklarni top'lash , o'rganish va bu xazinadan yosh avlodni ma'naviy-boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalashda samarali foydalanish bugungi kunda har birimizning oldimizda turgan eng ma'suliyatli va muxim vazifalardan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodirov R. Musiqa pedagogikasi - T., 2018
2. G'. Jahongirov. "O'zbek bolalar folklori" Toshkent-1975.
3. G'. Jalolov. "O'zbek folklorida janrlararo munosabatlar". Toshkent-1979.
4. Dolibayevna, R. N. (2024). Milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasining ajralmas qismi. Pedagog, 54(2), 189-192.
5. Rahmatova N.D. "Bolalar musiqa folklorining tarbiyaviy ahamiyati". "Экономика и социум" №3(130)-2 2025. www.iupr.ru
6. Karamatov H. va b. O'zbekiston san'ati – T., 2001 111 b. "Экономика и социум" №3(130)-2 2025